



YOSHLAR ORASIDA SUN'IY DO'STLIK (AI FRIENDS) FENOMENI

Muallif: Ganiyev Akmal Abduhalilovich¹

Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17350102>

ANNOTATSIYA

Maqolada yoshlar orasida sun'iy idrok do'stlik (AI friends) fenomenining shakllanish sabablari, ijobiy va salbiy jihatlari, shuningdek psixologik va axloqiy oqibatlari tahlil qilinadi. O'zbekiston sharoitida raqamli savodxonlikni oshirish, yoshlar psixologiyasini qo'llab-quvvatlash hamda sun'iy intellekt etikasi bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Replika, Character.AI, Snapchat, fenomen, ChatGPT.

KIRISH

So'nggi yillarda sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalar hayotimizning deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Chatbotlar, virtual yordamchilar, ovoqli suhbatdoshlar bugun nafaqat axborot olish, balki hissiy muloqot va do'stlikni ham taqdim eta olmoqda. Ayniqsa yoshlar orasida Replika, Character.AI, Snapchat My AI, ChatGPT kabi suhbatdosh ilovalar orqali sun'iy do'stlik - ya'ni AI friends fenomeni - keng tarqalmoqda. Bu hodisa insonning ijtimoiy va psixologik ehtiyojlariga javob berishga urinayotgan yangi texnologik bosqich sifatida ko'rilmqda. Sun'iy do'stlik fenomeni yoshlarning o'zaro muloqoti, shaxsiy rivojlanishi, ma'naviy qadriyatlar va jamiyatlardagi ijtimoiy aloqalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Sun'iy do'stlikning shakllanishida bir nechta psixologik, ijtimoiy va texnologik omillar mavjud. Ulardan eng muhimlari quyidagilar:

- AI do'stlar 24 soat davomida mavjud bo'lib, har qanday vaqtda suhbat qurish imkonini beradi. Bu foydalanuvchiga doimiy e'tibor va xavfsizlik hissini beradi. Yoshlar real hayotda muloqotda uchraydigan baho berish, tanqid qilish yoki rad etish holatlaridan xoli bo'lib, o'zini erkin his qiladi. Natijada ular ko'pincha sun'iy suhbatdosh bilan o'z sirlarini bo'lishadi, his-tuyg'ularini erkin ifoda etishadi. Bu esa ularning ichki dunyosini yengillatadi va stressni kamaytiradi;
- Zamonaviy AI ilovalari foydalanuvchi shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, kayfiyatini tahlil qilishga qodir. Ular suhbat davomida foydalanuvchining til uslubini o'zlashtiradi, sevimli mavzularni eslab qoladi va shunga mos ravishda javob beradi. Bu shaxsiylashtirish darajasi yoshlarni yanada jalb etadi, chunki ular o'zlarini chin do'st bilan gaplashayotgandek his qiladilar. Shu tariqa sun'iy do'stlikka emotsional qaramlik kuchayadi;

Yoshlarning texnologiyaga bo'lgan tabiiy qiziqishi va yangi tajriba izlash istagi sun'iy do'stlikni tez rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. Raqamli avlod virtual muhitda o'zini namoyon qilish, yangicha muloqot usullarini sinab ko'rishga intiladi. Bu esa sun'iy do'stlikni yanada kengaytiradi.

1-jadval. Sun'iy idrok do'stligining ijobiy va salbiy jihatlari

Sun'iy do'stlikning ijobiy jihatlari	Sun'iy do'stlikning salbiy jihatlari va xavflari
Stressni kamaytirish hissiy yengillik berish va yolg'izlikni qisqa muddatli yengillashtirish	Ijtimoiy izolatsiya ijtimoiy ko'nikmalari, jamoada ishlash va shaxslararo muloqotini susayishi
Til o'rganishi va kommunikativ ko'nikmalar chet tillarida muloqot qilish, yangi so'zlarni o'rganish imkoniyati kengayishi	Emotsional qaramlik sun'iy do'st bilan emotsional bog'lanish natijasida haqiqiy do'stliklar o'rnini to'ldirilishi
Ruhiy salomatlikni monitoring qilish ayrim AI ilovalari foydalanuvchining kayfiyatini tahlil qilib, psixologik maslahatlar berishi	Ma'lumot xavfi maxfiy ma'lumotlar uchinchi tomonlarga yetib borishi ehtimoli
Ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi hikoya yozish, she'r yaratish, yangi g'oyalarni ishlab chiqishda foydali tavsiyalar berishi	O'z-o'zini baholash Virtual do'stlar bilan muloqotga ko'proq vaqt ajratish real hayotdagi rivojlanish va ijtimoiy moslashuvni sekinlashtirish

O'zbekistonda sun'iy do'stlik fenomeni tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Yoshlar orasida Telegram-botlar, Replika va o'zbek tilida ishlovchi chat-ilovalar keng ommalashmoqda. Bu jarayon nafaqat shaxsiy muloqot, balki ta'lim tizimi va oilaviy qadriyatlarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Raqamli savodxonlik darajasi yetarli bo'lmagan taqdirda, yoshlarning real ijtimoiy ko'nikmalari rivoji sekinlashishi mumkin. Milliy qadriyatlar, oilaviy rishtalar va jamiyatning axloqiy me'yorlarini saqlab qolish uchun ta'lim muassasalari, ota-onalar hamda davlatning roli katta. Shu bilan birga, AI ilovalarining o'zbek tilida rivojlanishi foydalanuvchilarni yanada kengroq qamrab olmoqda, bu esa masalani yanada dolzarb qilmoqda.

ILMIY VA AXLOQIY YECHIMLAR

- Raqamli savodxonlikni oshirish: Maktab va oliy ta'limda media va axborot savodxonligi darslarini kengaytirish, virtual va real do'stlik farqini tushuntirish.
- Psixologik qo'llab-quvvatlash: Yoshlar uchun psixologik maslahat xizmatlarini kuchaytirish, onlayn xavfsizlikni ta'minlash.
- AI etikasi: Ilova ishlab chiquvchilar shaffoflikni ta'minlashi, foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilish bo'yicha huquqiy javobgarlikka ega bo'lishi kerak.
- Gibrid yondashuv: AI do'stlardan faqat foydali maqsadlarda (til o'rganish, ijodiy loyihalar) foydalanish, insoniy muloqotni esa asosiy qadriyat sifatida saqlash.
- Ota-onalar va pedagoglar nazorati: Yoshlarning AI bilan muloqotini sog'lom yo'nalishga yo'naltirish.

XULOSA

Sun'iy do'stlik (AI friends) fenomeni yoshlar uchun qisqa muddatli hissiy yengillik va qulaylik yaratishi mumkin, lekin uzoq muddatda ijtimoiy izolyatsiya, emotsional qaramlik va real munosabatlarning susayishi xavfini tug'diradi. Optimal yechim — AI ni yordamchi vosita sifatida, real insoniy do'stlikni esa asosiy qadriyat sifatida saqlashdir. Davlat, ta'lim muassasalari, IT sohasi va oilalar bu jarayonni

sog'lom rivojlantirish uchun hamkorlikda axloqiy va huquqiy choralarni ishlab chiqishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brandtzaeg, P. B., Skjuve, M., & Følstad, A. (2022). My AI Friend: How Users of a Social Chatbot Understand Their Human-AI Friendship.
2. Chu, M. D. et al. (2025). Illusions of Intimacy: Emotional Attachment and Emerging Psychological Risks in Human-AI Relationships.
3. Zhang, Y. et al. (2025). The Rise of AI Companions: How Human-Chatbot Relationships Influence Well-Being.
4. Gur, T. (2025). The algorithm of friendship: literature review and future research directions.
5. Common Sense Media (2025). Talk, Trust, and Trade-Offs: How and Why Teens Use AI Companions.
6. Turkle, S. (2016). Reclaiming Conversation: The Power of Talk in a Digital Age.

